

Ish qurollari va materiallar



Texnologiya darslarida siz xuddi haqiqiy ustalar kabi ish qurollari yordamida turli materiallardan qo'l mehnatining ajoyib namunalarini tayyorlaysiz.

Ish qurollari – turli ishlarni bajarishda yordam beradigan maxsus buyumlar.



Qalam bilan chizamiz va yozamiz.



Qaychi yordamida qog'oz, mato va kartonni ehtiyotkorlik bilan qirg'amiz.



Chizg'ich o'lchash, to'g'ri chiziqlarni chizish va har bir ishda aniqlikka amal qilishda kerak.

Materiallar – turli buyumlarni yasash uchun asos bo'ladigan narsalar.



Yog'och – mebellar, o'yinchoqlar va hatto musiqa asboblari yasaladigan material.



Qog'oz chizish, yozish va turli qo'l mehnati buyumlarini yasash uchun kerak.



Matodan kiyimlar, o'yinchoqlar va bezaklar yasashda foydalanamiz.

Siz qanday ish qurollarini bilasiz? Atrofingizga qarang. Ko'rib turgan narsalaringiz qanday materiallardan tayyorlangan?



- Rasmlarga diqqat bilan qarang. Ularda tasvirlangan barcha ish qurollarining nomlarini ayting.
- Ulardan qaysilari texnologiya darslarida sizga kerak bo'ladi?
- Qaysi materiallar sizga texnologiya darslarida kerak bo'lib qolishi mumkin?



Bu yil texnologiya darslarida sizga qahramonlarimiz – **Madina** va **Akmal** yordam beradi.



Texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasi



Texnologiya darslarida siz kesasiz, qirqasiz, yopishtirasiz, qurasiz va yasaysiz. Bularning hammasi qiziqarli va xavfsiz bo'lishi uchun esa **muhim qoidalarni** yodda tutishingiz kerak.



Yodda tuting va bajaring!

Ish o'ringizni tayyorlab oling:

- partani iflos qilmaslik uchun uning ustiga qog'oz yoki plyonka to'shang;
- materiallaringizni tartib bilan joylashtiring;
- ortiqcha narsalarni portfelingizga solib qo'ying.



Fartuk va yengchani kiyib oling:

ular kiyimlaringizni yelim, bo'yoq va plastilindan himoya qiladi.

Mashg'ulot davomida:

- o'tirgan holda ishlang;
- to'g'ri o'tiring;
- yoningizdagilarga xalaqit bermang;
- o'qituvchining ruxsatisiz o'ringizdan turmang;

- o'qituvchingizni diqqat bilan tinglang;
- barcha ishlarni yo'riqnoma bo'yicha bajaring;
- agar yordam kerak bo'lsa, qo'lingizni ko'taring.



Qaychi bilan ishlashda e'tiborli bo'ling:

- qaychini faqat halqasidan ushang;
- qaychini o'ynamang va u yoqdan bu yoqqa silkitmang;
- uni boshqalarga halqali tomoni bilan uzating.

**Yelimdan ehtiyotkorlik bilan foydalaning:**

- yelimni yupqa qilib surting;
- yuzingizga olib bormang;
- ishni yakunlagandan keyin yelim idishining qopqog'ini yopib qo'ying.

**Plastilin bilan ishlashda ozodalikka rioya qiling:**

- maxsus taglik yoki taxtacha ustida ishlang;
- plastilinni parta ustiga surkab tashlamang;
- ishlab bo'lganingizdan keyin plastilin qoldiqlarini yana qutichaga joylab qo'ying;
- qo'llaringizni qog'oz sochiq bilan yaxshilab arting, keyin iliq suvda sovunlab yuving.

**Ishlab bo'lganingizdan keyin atrofingizni tartibga keltiring:**

- ish o'rningizni yig'ishtiring;
- qo'llaringizni yuving.



Yodda tuting! E'tibor va ehtiyotkorlik bilan ishlasangiz, chiroyli narsalar yasashni va ishlarni xavfsiz bajarishni o'rganib olasiz.

